

INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANINI O'QITISHDA ZAMANOVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Sodiqova Sabohat Choriyevna

*Qashqadaryo viloyati Ko'kdala tuman 1-son kasb hunar maktabi
informatika va axborot texnologiyalari fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada informatika va axborot texnologiyalari fani, hamda ularni o'qitishda pedagogik texnologiyalarning ahamiyati haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *Islahot, informatika, axborot texnologiyalari, ta'lim, pedagog, metod, kadr, o'qitish metodikasi.*

Mustaqil Respublikamizda olib borilayotgan islohatlar, siyosiy, iqtisodiy, ilmiytexnikaviy va madaniy, sohadagi o'zgarishlar maktab ta'limi tizimida ham o'z aksini topmoqda. O'zbekistonda uzluksiz ta'lim-tarbiya tizimini yaratish, shu asosida ta'lim sifatini jahon andozalari darajasiga yetkazish ta'lim sistemasining eng dolzarb vazifasiga aylandi. Bu esa barcha mutaxassisliklar qatori informatika bo'yicha kadrlar tayyorlash sifatini oshirishni ham taqozo yetadi. Ushbu dolzarb masalalar Informatika fan dasturi mazmunini ham o'zgalashtirishga ta'sir etadi. Ta'lim tizimida Informatikani o'qitish metodikasi fanining o'qitilishi pedagog kadrlarni intellektual salohiyatga ega, mustaqil fikrovchi, zamonaviy ta'lim texnologiyalarining tashkiliy, texnik va didaktik imkoniyatlaridan xabardor bo'lishlari uchun sharoit yaratibgina qolmay, kasbiy faoliyatlarida ta'lim jarayonini rejalashtirish va tashkil etishda ulardan samarali foydalana olish ko'nikma va malakalarini shakllanirishiga asos bo'ladi. Yuqoridagi fikrlar Informatika fanining asosiy mazmunini belgilashga yordam beradi. Respublikamizda, yosh avlodning o'z faoliyatini rejalashtirishi, qo'yilgan masalani yechishga zarur bo'lgan axborot topa olishi, o'rganilayotgan ob'ekt yoki jarayonni informatsion modelini qura olishi va yangi texnologiyalardan unumli foydalana olishi kabi malakalarga ega bo'lishi uchun zarur sharoitlar yaratib berilmoqda. Zamonaviy kompyuterlarni boshqara olish malakasiga ega bo'lish har bir yosh avlodga zarurdir. Shuning uchun, o'rta maktab Informatika fanining birinchi va muhim vazifalaridan biri o'quvchilarda aniq bir fikrlash usulini shakllantirishdir. Informatika - bu umumta'lim fanidir va unga tizimli nuqtai nazardan qarash kerak, bu o'rta ta'limning o'ziga xos xususiyatlari va vazifalari bilan belgilanadi. Informatikani fan sifatida qabul qilinishining qiyinchilik tomoni shundaki undagi masalalar fizika, matematika, astronomiya fanlariga ham tegishlidir va informatika fanlararo aloqadorlikka ega.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol usullardan foydalanish o'quvchilarda fanga bo'lgan qiziqishini hosil qilishning zaruriy sharti hisoblanadi. Chunki mazkur usullar o'quvchilarning diqqatini qo'yilgan muammolarning mohiyatahamiyatini anglab olishga va ularning yechimi ustida mustaqil, tanqidiy muhokama yuritishga yo'naltiradi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish

uchun bir qator interaktiv usullardan foydalanish mumkin. Bu usullar qo'yilgan muammoning yechimini topishga qaratilgan bo'lib, bunda mantiqiy usullar, xususan, tushunchani ta'riflash va bo'lish, umumlashtirish va chegaralash, savollar tuzish, baxs va boshqalar nazariy metodologik mavqeini egallaydi. Pedagogik texnologiyalardan biror bir fanni o'qitish jarayonida foydalanish o'qituvchidan informatika va axborot texnologiyalari fani asoslarini yaxshi bilishni, uning qonun-qoidalari va usullarini amaliyotda qo'llay bilish malakasiga ega bo'lishini talab etadi. Informatika va axborot texnologiyalari fani didaktikasi va o'qitish metodikasida asosiy o'rinlardan yana birini o'qitish usullari egallaydi. O'qitish metodlarining muammosini qisqacha "qanday o'qitish kerak?" degan savol yordamida ifoda qilish mumkin. Lekin shuni e'tirof etish lozimki, ushbu savolga javob olish uchun "Nima uchun o'qitish kerak?", "Nimalarni o'qitish kerak?" va "Kimlarni o'qitish kerak?" kabi savollar bo'yicha yetarlicha axborotga ega bo'lish kerak. Ana shundagina o'qitish maqsadi va mazmuniga, o'quvchilarning fikrlash faoliyati darajasiga to'liq javob bera oladigan o'qitish metodlarini tanlash masalasi xal etilishi mumkin. O'qitishning maqsadi va vazifalari o'qitish metodini yagona ravishda aniqlamaydi. Ma'lum bir mazmun bir necha metod bilan o'rganilishi mumkin. Bunda albatta xar bir metod yordamida o'qitish maqsadlariga erishiladi. O'qitish metodlari ko'p qirralidir. Shu sababli ham ularni ko'plab tasniflari mavjuddir. Bu tasniflarda metodlar bir yoki bir nechta belgilar bo'yicha jamlanadi. Ma'lumki, "Informatika va axborot texnologiyalari" o'quv predmetining asosiy vazifasi o'quvchilarni zamonaviy axborot texnologiyalarining ba'zi bir umumiy g'oyalari bilan tanishtirish, axborot texnologiyalarining amaliyotdagi tatbiqini va kompyuterlarning zamonaviy hayotdagi ro'lini ochib berishdan iborat. Lekin, didaktik tamoyillarni xisobga olgan holda, o'quvchilarga nafaqat faktlarning qat'iy ilmiy bayonini berish, balki o'qitishning turli qiziqarli metodlarini ham qo'llash lozim.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni yoritib o'tadigan bo'lsak.

Baliq skeleti" texnologiyasi. Ushbu texnologiya baliq model chizmasi orqali namoyish etilib, bunda o'quvchilar o'rtaga tashlangan muammoni har tomonlama ochib berishga harakat qiladilar. Baliq skeleti chizmasi vatmanga chizilib uning tepa qismiga yechilishi kerak bo'lgan muammo yoziladi. Pastki qismiga muammoni hal etilish yo'llari yozib boriladi. Masalan, informatika darslarida "Power Point "dasturi mavzusida uning imkoniyatlari muammosi qo'yilsa, bolalar o'z fikrlari bilan baliq sklitini boyitib boradilar. Bu usul orqali o'quvchilar mustaqil, keng, ijodiy, tanqidiy fikrlashga o'rganadilar.

Informatik optimum metodi. Optimum- eng yaxshi degan ma'noni bildiradi .Bu metoddan o'quvchilar bilimini o'tilgan mavzularni takrorlash va mustahkamlash uchun foydalanish o'rinlidir.Bunda eng so'zi asos qilib olinadi va har bir savol shu so'z bilan boshlanadi.

Masalan: Eng katta kompyuter xotirasi?

Eng ko'p ishlatiladigan dastur?

Eng kichik kompyuter qurilmasi?

Eng ko'p foydalaniladigan kompyuter qurilmasi?

Informatika fani jamiyatni yanada rivojlantirish jarayonlariga tobora ko'proq ta'sir ko'rsatmoqda. Jamiyatning umumiy salohiyatini va uni rivojlantirish istiqbollari belgilovchi omillarga aylanmoqda. Jamiyatni axborotlashtirish - zamonaviy sivilizatsiyasining eng muhim tarkibiy qismidir. Informatika fani tabiat va jamiyatdagi axborot va axborot jarayonlari bo'yicha asosiy texnik jihatdan fundamental fanga aylanmoqda. Bundan buyon maktab informatika kursining umumiy ta'lim va amaliy ahamiyati tobora o'sib boraveradi. Bu kurs katta gumanitar salohiyatga ega. U yosh avlodni axborot jamiyatidagi samarali faoliyatiga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. Informatika o'qitish metodikasi pedagogikaning informatika fanini umumta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari informatika va axborot texnologiya fanlarini o'qitish qonuniyatlarini tadqiqot qiluvchi bo'limi hisoblanadi. Informatika fanini o'qitish quyidagi maqsadni ko'zda tutadi:

o'quvchilarga informatika fanini ijodiy o'qitish va o'zlarining amaliy faoliyatlarida yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llash bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalari bilan qurollantirish;

o'quvchilarni informatika sohasi bo'yicha turli tuman shakldagi sinf va sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish va o'tkazishga tayyorlash;

o'quvchilarni ta'lim sohasini axborotlashtirishning yo'llari va ulkan istiqbollari haqida tasavvurlarini rivojlantirish hamda chuqurlashtirishdir.

Bugungi kun talabi ta'limni sifat o'zgarishlariga olib keluvchi yangicha yondashuvlarni izlashga undamoqda va uni o'rganishdagi yondashuvlar (metodlar) ham o'zgarmoqda. Ta'limda yangi bilimlarni amalda qo'llash natijasi innovatsiyalarga asoslangan yangi ta'lim yaratilishiga olib kelmoqda. Respublikamizda ta'lim tizimini har tamonlama rivojlantirish kadrlar tayyorlash tizimini tubdan yangilash va isloh qilish davlat ahamiyatidagi eng ustivor vazifalar qatoriga kiradi. Shunday ekan, "Informatika" fanini o'qitish samaradorligini oshirish o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish hamda o'tkazishda pedagogik va axborot texnologiyalaridan keng foydalanish, o'qitish mazmuniga mos dasturiy ta'minotini ishlab chiqish, ularni o'quv jarayoniga joriy etish asosiy vazifalardan hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni // Xalq so'zi gazetasi, 2017 yil 9 fevral.
2. Avliyoqulov N. "Zamonaviy o'qitish texnologiyalari"- T.:, 2001yil.
3. Yo'ldoshev J., Usmonov S. "Pedagogik texnologiya asoslari"- T.: O'qituvchi 2004 yil.

4. Azizxojayeva N.N. “Pedagogika va pedagogik mahorat”- T.: TDPI, Nizomiy 2003 yil.
5. O`quv jarayonida ilg`or pedagogik va axborot texnologiyalarini qo`llash yo`llari. Uslubiy qo`llanma. Akademik S.S.G`ulomov umumiy rahbarligi ostida. – T.; TDIU 2005. 90 b,105 b.
6. Ismatilla Isoqov, Sindorqul Ibragimovich Qulmamatov. “Informatikani o`qitishda innovatsion texnologiyalar”. Ma`ruza matnlari.
7. Ахмедов А. А. Новые подходы к интеграции высшего образования России и Узбекистана в обучении экономических дисциплин //ББК 74.58 П 27. – 2019. – С. 69.
8. Ахмедов А. А., Избасаров Б. Ф., Камолов И. Р. Формирование и развитие экспериментальной компетентности-перспектива будущего учителя физики //Евразийское Научное Объединение. – 2020. – №. 5-6. – С. 426-428.